

# SHAXS RIVOJLANISHIDA IRQIY VA JINSIY OMIL VA MADANIYAT TA'SIRI

Xalqaro Nordic univertiteti  
o'qituvchisi TDPU mustaqil  
tadqiqotchisi Sh.Sh. Shodiboyev

## Annotatsiya

*Ushbu maqolada inson shaxsining rivojlanishiga irq, jins va madaniyat omillarining ta'siri keng muhokama qilingan. Dastlab, shaxs rivojlanishi bo'yicha nazariyalarni ilgari surgan olimlarning ko'pchiligi oq tanli, Yevropa va Amerika erkaklari bo'lganligi ta'kidlangan. Ushbu tarixiy cheklovlar natijasida dastlabki tadqiqotlar va nazariyalar jins va irq kabi muhim omillarni yetarli darajada hisobga olmagan.*

*Madaniyatning shaxsiyat shakllanishiga ta'siri ko'plab misollar orqali ochib berilgan. Masalan, turli madaniy muhitda yashagan bolalarning shaxsiyati o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligi va immigrantlarning yangi madaniyatga moslashuvi ularning shaxsiyati rivojlanishida muhim o'zgarishlar keltirib chiqarishi ko'rsatilgan. Gender stereotiplari ham shaxsiyat shakllanishiga ta'sir qiluvchi omil sifatida qayd etilgan.*

*Maqolada karma tushunchasi kabi sharq madaniyatlariga xos e'tiqodlarning inson shaxsiyatiga ta'siri ham tahlil qilingan. Karma e'tiqodi hayotga passivroq munosabatni shakllantirishi, g'arb madaniyatida esa faol harakat va erkin tanlov ustuvorligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, g'arb va sharq madaniyatlaridagi farqlarning zamonaviy o'zgarishlar ta'sirida kamayib borayotganiga e'tibor qaratilgan.*

*Ushbu maqola shaxs psixologiyasi va madaniyatlararo psixologiya sohasidagi muhim tushunchalarni yoritadi va shaxs shakllanishida madaniy, irqiy va jinsiy omillarning o'рни haqida chuqur tasavvur beradi.*

## Shaxs rivojlanishida irqiy va jinsiy omil

Kitobda qamrab olingan shaxs bo'yicha nazariyachi olimlar inson shaxsi mohiyati haqida turli qarashlarga ega bo'lishgan. Ularning qarashlari va yondashuvlaridagi tafovutlarga qaramay, ularning barchasida ayrim

umumiy jihatlar mavjud. Ularning barchasi oq tanli, Yevropa yoki Amerikada yashab o'tishgan va deyarli barchasi erkak. Bu holat, bu olimlar o'z g'oyalarini rivojlantirayotgan davr uchun tabiiy hol edi. O'sha davrda san'at, falsafa, adabiyot va fan sohalaridagi deyarli barcha yutuqlar Yevropa yoki Amerika oq tanli erkaklari tomonidan ilgari surilgan va targ'ib qilingan. Ko'pgina sohalarda, jumladan, ilmiy tadqiqotlar va kasbiy imkoniyatlar ayollar va etnik ozchilik vakillari uchun juda cheklangan edi.

Shaxs psixologiyasi sohasida ham dastlabki nazariyalarga asos bo'lgan barcha bemorlar va tadqiqot subyektlarining deyarli barchasi oq tanlilar edi. Hatto laboratoriya sichqonlari ham oq rangli bo'lgan. Bundan tashqari, bemorlar va tadqiqot subyektlarining aksariyati erkaklardan iborat edi. Shunga qaramay, shaxs nazariyachilari o'z nazariyalarini jins, irq yoki etnik kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha odamlar uchun tegishli deb ko'rsatishgan.

Nazariyachilar hech qachon o'z qarashlari faqat erkaklarga yoki oq tanlilarga yoki amerikaliklarga tegishli deb ochiq bayon qilmagan, yoki boshqa millat va kelib chiqishga ega bo'lgan odamlar uchun o'z nazariyalari yaroqli emasligini bayon etishmagan. Ular jamiyat va atrof-muhit omillarini shaxs shakllanishida ahamiyatga ega ekanligini ma'lum darajada tan olishgan bo'lsa-da, ular jins va etnik kelib chiqish ta'sirini e'tiborsiz qoldirish yoki kam baholashar edi.

Odamlarning shaxsi ularning bolalikda qanday ta'sirlarga duchor bo'lganiga qarab shakllanadi. Masalan, bizning aka-uka va opa-singillarimiz yoki do'stalarimiz bolalikda har xil munosabatlarni boshdan kechirishganligi uchun ular o'ziga xos shaxsiga ega bo'lishadi. Shuningdek, ijtimoiy psixologiya bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar turli muhitlarda voyaga yetgan bolalar (masalan, oq tanlilar yashaydigan AQShning o'rta g'arbiy shaharlari, Los-Anjelesning lotin hududlari, Apalachi tog' qishloqlari yoki boy afroamerikaliklar yashaydigan shaharlar) turli ta'sirlarga duchor bo'lishini ko'rsatadi va bu ularning shaxsiyatida sezilarli farqlarni yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, o'g'il va qiz bolalar odatda an'anaviy gender stereotiplari asosida tarbiyalanadi va bu ham ularning shaxsiga turlicha ta'sir qiladi. Tadqiqotlar erkaklar va ayollar o'rtasidagi ayrim shaxs xususiyatlarida sezilarli farqlarni aniqlagan. Masalan, Amerika va Germaniyadagi universitet va tibbiyot maktablarida o'tkazilgan

tadqiqotlarda ayollar, odatda, erkaklarga nisbatan yuqoriroq darajadagi emotsional murakkablik va intensivlikni namoyish qilgan<sup>1</sup>. Shuningdek, 16 ta islom davlatidagi 7,000 dan ortiq talaba ishtirok etgan tadqiqotda ayollar erkaklarga nisbatan ko‘proq xavotirga ega ekanliklari aniqlangan<sup>2</sup>. Kitob davomida biz gender va jinsiy o‘ziga xosliklarga bog‘liq bo‘lgan shaxsga doir farqlar haqida yana ko‘plab misollarni birgalikda ko‘rib o‘tamiz.

### **Shaxs shakllanishida madaniyatning roli**

Psixologiyada shaxsiyatga madaniy ta’sirlar muhim omil ekanligi keng tan olingan. Xususan, madaniyatlararo psixologiya (cross-cultural psychology) sohasi bu borada katta tadqiqotlar olib borib, shaxs xususiyatlari genetik va atrof-muhit omillari, jumladan, madaniy ta’sirlar natijasida shakllanishini tasdiqlaydi<sup>3</sup>.

Misol sifatida, AQShga ko‘chib o‘tgan yaponlarning shaxsiyati AQShda qolgan yaponlarga nisbatan ko‘proq “amerikacha” bo‘lib qolgani kuzatilgan. Ular yangi madaniyatga moslashgan holda shaxs xususiyatlarida sezilarli o‘zgarishlarni namoyish etishgan<sup>4</sup>. Boshqa bir tadqiqot Kanadaga ko‘chgan xitoylik immigrantlarni o‘rganib, Kanadada kamida 10 yil yashagan xitoyliklarning ko‘proq ekstrovertlik xususiyatiga ega bo‘lganini ko‘rsatdi. Ular Gonkongda qolgan yoki yaqinda Kanadaga ko‘chib kelgan xitoyliklarga nisbatan ancha ochiq munosabatlarga kirishuvchanligi aniqlangan<sup>5</sup>.

Madaniy o‘ziga xosliklar shuningdek xavotir va boshqa salbiy emotsiyalarga ham ta’sir qiladi. Masalan, o‘tkazilgan bir tadqiqotda osiyo-amerikalik talabalar ijtimoiy vaziyatlarda yevropa-amerikaliklarga nisbatan ko‘proq salbiy emotsiyalar his qilganligi kuzatilgan<sup>6</sup>. Umuman olganda, g‘arbliklar, ayniqsa amerikaliklar, kelajak haqida positiv kutilmalar kutib va

---

<sup>1</sup> Barrett, L., Lane, R., Sechrest, L., & Schwartz, G. (2000). Sex differences in emotional awareness. *Personality and Social Psychology Bulletin*, 26, 1027–1035.

<sup>2</sup> Alansari, B., & Kazem, A. (2008). Optimism and pessimism in Kuwaiti and Omani undergraduates. *Social Behavior and Personality*, 36(4), 503–518.

<sup>3</sup> Alansari, B., & Kazem, A. (2008). Optimism and pessimism in Kuwaiti and Omani undergraduates. *Social Behavior and Personality*, 36(4), 503–518.

<sup>4</sup> Gungor, D., Bornstein, M., De Leersnyder, J., Cote, L., Ceulemans, E., & Mesquita, B. (2013). Acculturation of personality: A three-culture study of Japanese, Japanese Americans, and European Americans. *Journal of Cross-Cultural Psychology*, 44, 701–718.

<sup>5</sup> McCrae, R. R., Yi, M. S. M., Trapnell, P. D., Bond, M. H., & Paulhus, D. L. (1998). Interpreting personality profiles across cultures: Bilingual, acculturation, and peer rating studies of Chinese undergraduates. *Journal of Personality and Social Psychology*, 74, 1041–1055.

<sup>6</sup> Lee, M., Okazaki, S., & Yoo, H. (2006). Frequency and intensity of social anxiety in Asian Americans and European Americans. *Cultural Diversity and Ethnic Minority Psychology*, 12, 291–305.

o‘zlarini ko‘proq ijobiy baholaydilar, hattoki ular sport jamoalari, shaharlar va do‘stlarining ustunliklariga ham ko‘proq ishonishadi<sup>7</sup>.

Madaniyatning inson miyasi faoliyati va genetik tarkibiga ta'siri ham bor. Madaniy nevrologiya (cultural neuroscience) sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sharqiy va g'arbiy madaniyat vakillari bir xil stimullarga miyada turlicha reaksiyalar bildirar ekan<sup>8</sup>. Tadqiqotchilar miya to‘lqinlari faolligini o‘lchash orqali bir xil stimulgga javob berganda sharq va g‘arb madaniyatlariga mansub odamlar orasida miya faoliyati jihatidan farqlar mavjudligini aniqlaganlar<sup>9</sup>. Masalan, yapon va amerikaliklarning bir xil vizual stimullarga nisbatan har xil miya to‘lqinlari faolligi kuzatilgan va bu farqlar har bir madaniyatdagi itoatkorlik yoki hukmronlik darajalaridagi farqlarga bog‘liq ravishda yuz bergan<sup>10</sup>.

Matn davomida va kitobning boshqa bo'limlarida madaniyat yashayotgan odamning shaxsiyati shakllanishi va rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida yana ko'plab misollar keltiriladi.

### **Taqdir masalasida turli xil madaniy qarashlar**

Hindiston va boshqa hind dinlari yoki buddizmni qabul qilgan mamlakatlarda yashovchi odamlarda karma tushunchasi asrlar davomida ularning dunyoqarashi, psixologik xususiyatlari va hayotiy voqealarga qarashini o‘zgacha shakllantirib kelgan. Bu insonning fatalitik<sup>11</sup> va deterministik<sup>12</sup> tabiati hisoblanadi. Karma tushunchasiga ko'ra, hozirgi va o'tmishdagi harakatlarimizning natijalari kelajakdagi taqdirimizni, baxtimiz yoki baxtsizligimizni belgilaydi. Boshqacha aytganda, voqealar bizning harakatimiz tufayli emas, balki ular taqdirimizda bo‘lgani uchun sodir bo‘ladi, deb ishoniladi. Insonning xatti-harakatlari va qarorlari o‘zining kelajagini shakllantiradi, lekin bu natijalar oldindan belgilangan

---

<sup>7</sup> Endo, Y., Heine, S. J., & Lehman, D. R. (2000). Culture and positive illusions in close relationships: How my relationships are better than yours. *Personality and Social Psychology Bulletin*, 26, 1571–1586.

<sup>8</sup> Azar, B. (2010). Your brain on culture: The burgeoning field of cultural neuroscience is finding that culture influences brain development, and perhaps vice versa. *Monitor on Psychology*, 41(10), 44–47.

<sup>9</sup> Azar, B. (2010). Your brain on culture: The burgeoning field of cultural neuroscience is finding that culture influences brain development, and perhaps vice versa. *Monitor on Psychology*, 41(10), 44–47.

<sup>10</sup> Freeman, J., Rule, N., & Ambady, N. (2009). Culture shapes a mesolimbic response to signals of dominance and subordinations that associate with behavior. *Neuroscience*, 47(1), 353–359.

<sup>11</sup> **Fatalitik** - insonning hayotida sodir bo‘ladigan voqealar va natijalar taqdirda oldindan belgilangan va odam bu holatlarni o‘zgartira olmaydi.

<sup>12</sup> **Deterministik** - insonning hozirgi va o'tmishdagi harakatlari kelajakdagi natijalarni oldindan belgilab qo‘yadi, degan fikrni bildiradi.

qonuniyatlarga asoslanadi, ya'ni inson o'z taqdirini radikal o'zgartira olmaydi.

Bu qarashga ko'ra, insonning boyligi yoki qashshoqligi, sog'lig'i yoki kasalligi, baxti yoki baxtsizligi oldindan belgilangan va insonning o'z harakatlariga bog'liq emas. Bu e'tiqod odatda hayotga passiv, taslimkor shaxsiy yondashuvni shakllantirishi mumkin: kishi taqdiriga tan beradi va o'z hayotini yaxshilash uchun faollik yoki harakat qilishga motivatsiya sezmaydi.

Buni Amerika madaniyatiga xos qarash bilan solishtirsak, amerikaliklar erkin tanlov va faol harakatga urg'u berishadi. Ularning fikricha, inson muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi ko'p jihatdan o'zining shaxsiy kuchi, tashabbusi va sa'y-harakatlariga bog'liq.

Tadqiqotlar G'arb va Sharq madaniyatlari o'rtasida taqdir va karma haqidagi qarashlarda sezilarli madaniy farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu madaniy farqlar odamlarning hayotda qanday qarorlar qabul qilishiga, muvaffaqiyatsizliklarga va hayotdagi voqealarga qanday munosabatda bo'lishlariga ta'sir qiladi. Misol uchun, Sharq madaniyatidagi odamlar biror qiyinchilikni taqdirning bir qismi sifatida qabul qilib, bunga ko'proq sabr qilishlari mumkin. G'arb madaniyatidagi odamlar esa, o'zlari harakat qilib, muammoni hal qilishga ko'proq intilishadi. (Norenzayan & Lee, 2010). Ammo, Sharqiy davlatlar, masalan, Xitoy zamonaviylashib, G'arb madaniyatiga ko'proq yaqinlashgan sari, bu taqdirga bog'liq qarashlar kamayib bormoqda (Wong, Shaw, & Ng, 2010).

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Barrett, L., Lane, R., Sechrest, L., & Schwartz, G. (2000). Sex differences in emotional awareness. *Personality and Social Psychology Bulletin*, 26, 1027–1035.
2. Alansari, B., & Kazem, A. (2008). Optimism and pessimism in Kuwaiti and Omani undergraduates. *Social Behavior and Personality*, 36(4), 503–518.
3. Alansari, B., & Kazem, A. (2008). Optimism and pessimism in Kuwaiti and Omani undergraduates. *Social Behavior and Personality*, 36(4), 503–518.
4. Gungor, D., Bornstein, M., De Leersnyder, J., Cote, L., Ceulemans, E., & Mesquita, B. (2013). Acculturation of personality: A three-culture study of Japanese,

Japanese Americans, and European Americans. *Journal of Cross-Cultural Psychology*, 44, 701–718.

5. McCrae, R. R., Yi, M. S. M., Trapnell, P. D., Bond, M. H., & Paulhus, D. L. (1998). Interpreting personality profiles across cultures: Bilingual, acculturation, and peer rating studies of Chinese undergraduates. *Journal of Personality and Social Psychology*, 74, 1041–1055.

6. Lee, M., Okazaki, S., & Yoo, H. (2006). Frequency and intensity of social anxiety in Asian Americans and European Americans. *Cultural Diversity and Ethnic Minority Psychology*, 12, 291–305.

7. Lutfullaeva, N. (2024). INSON TOMONIDAN IDROK ETILADIGAN MUSIQA VA RITMNING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSLARI. *Nordic\_Press*, 5(0005).

8. Xolmatov, M. (2024). ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИК, ТУШУНЧА, СОЦИАЛ-ПСИХОЛОГИК ТАҲЛИЛ. *Nordic\_Press*, 3(0003).

9. Joldasheva, A., & Yuldasheva, N. (2020). FACTORS EFFECT ON CREATIVE THINKING OF PRESCHOOLERS. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 372-376).

10. ARAPBAYEVA, D. (2024). НИКОН МУНОСАБАТЛАРИДАГИ О ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING OILA MUSTAHKAMLIGIDA TUTGAN O ‘RNI. *News of the NUUz*, 1(1.6. 1), 53-55.